

---

## Sux tumanidagi Javpaya massivi - imkoniyatlari keng hudud



### **Sux tumanidagi Javpaya massivi - imkoniyatlari keng hudud**


Diyorimiz – betakror Sux tumani garchi to‘rt tomondan purviqor tog‘lar bilan o‘ralgan go‘sha bo‘lsada, kelajakda rivojlanish va taraqqiyot uchun mavjud bo‘lgan imkoniyatlari cheksiz. Tumanimizda o‘zlashtirilmagan, tahqiq etilmagan hududlar borki, bu hududlar tumanning porloq kelajagi, iqtisodiy iqtidoriga zamina bo‘lishi tabiiy hol.

Suxda 4 000 gektarga yaqin qishloq xo‘jaligida foydalanadigan, ya‘ni ekin ekishga yaroqli bo‘lgan va ayni paytda foydalanishda bo‘lgan yer maydonlari bor. Bundan 1 777 gektarini ekin yer maydonlari, 1 197 gektarini bog‘, 57 gektarini tut plantatsiyalari, 3 gektarini uzumzor va 668 gektarini aholi tomorqa yerlari tashkil etadi. Lekin o‘zlashtirilmagan, qishloq xo‘jaligida foydalanmaydigan yerlarimizning masohati ham ancha katta ekanligi qishloq xo‘jaligi mutaxassislari ma‘lumotidan ma‘lum bo‘ldi. “Ozod” shirkat xo‘jaligi, Qal‘acha mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Javpaya massivi ana shunday strategik imkoniyatlarga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. “Agar bu yerlarga suv chiqarilsa, tuman iqtisodiy salohiyatiga ko‘mak beradigan, katta ahamiyatga ega bo‘ladigan hudud bo‘ladi. Buning uchun, harakat va intilish lozim va albatta, mutaxassislarning hisob-kitobi zarur. Agar Javpaya massivining sug‘orilishiga muvaffaq bo‘lsak, tumanda 1 000 gektar yangi yerlar ochilishiga eraishamiz” – deydi Farg‘ona viloyati suv xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i A. Fozilov.



Mana bir necha kundirki, Farg'ona viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i A. Fozilov tumanimizda mehmon bo'lib, soha mutaxassislari, ayniqsa, tumanimiz hokimi Farrux Usarov bilan birgalikda tuman uzra qishloq xo'jaligida foydalanmayotgan, bo'sh turgan yerlarni o'rganishmoqda. Hushyor mahallasidagi Dukur, Demursad mahalla fuqarolar yig'iniga tutash bo'lgan Qayroq massivi, Qirg'iziston Respublikasi chegarasida joylashgan Toyon va Qal'acha mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Javpaya kengliklari obdon o'rganilmoqda. O'rganishlardan asosiy maqsad mavzelar imkoniyatidan kelib chiqib, bu hududlarga suv chiqarish va yillardan beri bo'sh turgan yerlarga obi hayot olib kelib, aholiga foydalanish uchun tarqatib berish va albatta, kunning asosiy mavzusi - ishsizlik muammosini yechishga erishish va aholi bandligini ta'minlashdan iborat.





Aytish mumkinki, tumanimiz hududida hali inson oyog'i yetib bormagan joylar bor. Ular o'rganishga, o'zlashtirishga mo'htoj. Ana shunday hududlardan biri Javpaya massivi hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, istiqoldan oldingi yillarda bu yerlarga ota-bobolarimiz arpa, bug'doy kabi ziroatlar ekib, parvarishlar ekan. Javpaya massivining yerlari tikonzor bo'lsada, qishloq xo'jaligi mutaxassislarning fikricha, bu yerdagi tuprurning ball-bariteti juda baland bo'lib, bu yerlarga obi hayot olib kelinsa, ekilgan ziroatlardan mo'l-ko'l hosil olish mumkin ekan.







Hasharotlar, ayniqsa, chigirtkaninng ming xilini uchratasiz Javpayada. “Yoz fasli kelsangiz, hasharotlar Sizga yo’l ochib beradi” – deydi tuman hokimining chegara masalalari bo’yicha o’rinbosari Sarvar Homidjonov. “Javpayaga suv kelsa, yerlar agar o’zlashtirilsa, bu hasharotlar o’zidan-o’zi yo’qolib ketadi” – deya bizga yuzlandi Sux tumani Agrosanoat majmo’i ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig’i, bir necha yil qishloq xo’jaligi sohasida faoliyat olib borgan mutaxassis Sobirjon Normatov. Darhaqiqat, Javpaya kengliklari imkoniyati keng bo’lgan hudud. Imkoniyatlarni izlab topib, bu tashna yerlarga obi hayot chiqarishdek mas’uliyat soha mutaxasislari zimmasiga yuklanadi. Ishonamzki, bu bepoyon kengliklar ham kelajakda o’zlashtirilib, tuman iqtisodiyotiga manfaati tegadigan o’ziga xos hududga aylanadi.

**Sux tumani hokimligi Axborot xizmati**

2020-05-18 17:14:44